



KIMYO SANOATI KORXONALARIDA ABC (FAOLIYATGA ASOSLANGAN XARAJATLAR) METODOLOGIYASINI QO'LLASH XUSUSIYATLARI

Onorboev Shuxratjon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0005-5303-169X

shuhratjon.onorboyev@tsue.uz

Annotatsiya. Global iqtisodiyot sharoitida kimyo sanoati tez o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Dunyo kimyo industriyasidagi o'zgarishlar va tayyor maxsulotlarni tijoratlashtirish bilan bog'liq muammolar yangicha yondoshuvlarni talab qilmoqda. Tarmoq korxonalarini barqaror rivojlanishi mavjud resurslar va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashga doir boshqaruv qarorlariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Boshqaruv hisobi resurslarni samarali tashkil etish va ulardan foydalanishni ta'minlashning vositasi sifatida boshqaruv hisobi boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida o'z o'rniga ega. Boshqaruv hisobining yetarli darajada tashkil etilmasligi va unda qo'llaniladigan zamonaviy usullarning foydalanilmasligi ishlab chiqarishni tashkil etish va uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini tashkil etish va foydalanish samaradorligini ta'minlash ustuvor masalalardan bo'lib hisoblanadi. Xarajatlarni tashkil etishda boshqaruv hisobining zamonaviy usullaridan foydalanish xarajatlarni zamonaviy usulda tashkil etishni ta'minlaydi. Bugungi kunda boshqaruv hisobida qo'llanilayotgan zamonaviy usullardan biri ABC costing yoki faoliyatlarga yo'naltirilgan usul bo'lib hisoblanadi. Ushbu ilmiy ishda ABC costing usuli va uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari tadqiqot obyekti sifatida olindi.

Kalit so'zlar: xarajatlarni tashkil etish, xarajatlarni optimal miqdorlari, ABC costing, kimyoviy jarayonlar, umumiy xarajatlar, xarajatlarni taqsimlash, taqsimlash bazalari.

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОЛОГИИ ABC (ACTIVITY-BASED COSTING) НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Онорбоев Шухратжон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В условиях глобальной экономики химическая промышленность претерпевает стремительные изменения. Изменения в мировой химической промышленности и проблемы, связанные с коммерциализацией готовой продукции, требуют новых подходов. Устойчивое развитие предприятий отрасли зависит от управленческих решений по обеспечению наличия имеющихся ресурсов и их эффективного использования. Управленческий учет как средство обеспечения эффективной организации и использования ресурсов занимает свое место в процессе принятия управленческих решений. Неадекватная организация управленческого учета и недостаточное использование современных методов, применяемых в нем, могут негативно отразиться на организации производства и его эффективности. В управленческом учете организация учета затрат и обеспечение его эффективности

являются приоритетными вопросами. Использование современных методов управленческого учета при организации затрат обеспечивает организацию затрат по современному. Одним из современных методов, используемых сегодня в управленческом учете, является метод ABC-костинга или метод по видам деятельности. В данной научной работе в качестве объекта исследования взят метод ABC-костинга и особенности его применения.

Ключевые слова: организация затрат, оптимальные суммы затрат, калькуляция себестоимости по методу ABC, химические процессы, общие затраты, распределение затрат, базы распределения.

FEATURES OF THE APPLICATION OF THE ABC (ACTIVITY-BASED COSTING) METHODOLOGY AT CHEMICAL INDUSTRY ENTERPRISES

Onorboev Shuxratjon

Tashkent State University of Economics

Abstract. *In the conditions of the global economy, the chemical industry is undergoing rapid changes. Changes in the world chemical industry and problems associated with the commercialization of finished products require new approaches. The sustainable development of industry enterprises depends on management decisions to ensure the availability of available resources and their effective use. Management accounting, as a means of ensuring the effective organization and use of resources, has its place in the process of making management decisions. Inadequate organization of management accounting and the lack of use of modern methods used in it can negatively affect the organization of production and its efficiency. In management accounting, the organization of cost accounting and ensuring its efficiency are priority issues. The use of modern methods of management accounting in the organization of costs ensures the organization of costs in a modern way. One of the modern methods used in management accounting today is the ABC costing or activity-based method. In this scientific work, the ABC costing method and the specific features of its application were taken as the object of research.*

Keywords: organization of costs, optimal cost amounts, ABC costing, chemical processes, general costs, cost allocation, allocation bases.

Kirish.

Kimyo sanoati xalq xo'jaligining muxim tarmog'i sifatida ximiyaviy moddalardan iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun maxsulotlar yetkazib beradi. Kimyo sanoatining asosiy istemolchilari kimyoviy moddalardan ishlab chiqarilgan maxsulotlarning istemolchilari bo'lgan iqtisodiy tarmoqlardir. Tarmoq korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning assortimentlari iste'molchilarning talablari asosida belgilanadi. Kimyo sanoati maxsulotlari uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol mollari sifatida yoki ishlab chiqarish tarmoqlarida iste'mol qilinadigan xom-ashyo va kimyoviy moddalar sifatida foydalanish mumkin.

Kimyo sanoati korxonalarida maxsulot ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib yuzaga keladi. Maxsulot ishlab chiqarish texnologiyasining xar bir bosqichida turli kimyoviy reaksiyalar amalga oshirilishi mumkin. Bunday kimyoviy reaksiyalar natijasida kimyoviy moddalarning tarkibi kimyoviy jixatdan o'zgarishlarga yuz tutishi mumkin. Xar bir ishlab chiqarish jarayoni turli materiallarni va kimyoviy moddalardan foydalanishni talab qilishi mumkin. Shuningdek kimyo sanoati korxonalari ishlab chiqarishi uchun yangi va zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etiladi. Bunday texnologiyalar katta moliyaviy sarmoyalar talab qiladi. Kimyo sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etishning yana bir xususiyati ekologik talablar bo'lib, ushbu talablarni bajarish bir qator materiallarni qayta ishlash, tugatish va jarayonlarni yopish yoki o'zgartirish bilan bog'liq xarajatlarni yuzaga

kelishiga olib keladi. Kimyo sanoati korxonalarida xarajatlarni bunday xususiyatlari ularni yuzaga kelish joylari va turlari bo'yicha hisobga olishni va tashkil etishni ta'minlaydigan usullardan foydalanishni talab qiladi.

Xarajatlarni tashkil etish va boshqarish xo'jalik sub'ektlarida boshqaruv hisobini usullari orqali ta'minlanadi. Boshqaruv hisobining AVS sosting usuli kimyo sanoati korxonalarida xarajatlarini tashkil etish va boshqarishda samarali usul bo'lib hisoblanadi. Ushbu ishda kimyo sanoati korxonalarida boshqaruv hisobining AVS sosting usulini qo'llash va uning xususiyatlarini tadqiq etishga xarakat qilindi.

Adabiyotlar sharhi.

Mehnatni boshqarishning maqsad va mohiyatini quyidagilar belgilaydi: maqsadning aniq belgilab olinishi, sog'lom fikr, o'rinli maslahat, intizom, xodimga nisbatan munosabat, to'liq va doimiy hisob, dispetcherlik, me'yorlar va ish rejimi, sharoitlarning, me'yorlashtirilishi, operatsiyalarni me'yorlashtirish, yozma standart yo'riqnomalar, unumdorlik uchun mukofot (Emerson, 1972.). Xarajatlarni boshqarish buxgalteriya hisobining mahsulot va xizmatlar tannarxini hisoblash usullari bilan shug'ullanadigan va menejerlarga qisqa muddatli va uzoq muddatda xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish uchun tegishli ma'lumotlarni taqdim etadigan sohadir (Horngren va boshq., 2003). Boshqaruv hisobini tashkilotning buxgalteriya hisobining mustaqil yo'nalish bo'lib, u boshqaruv apparatini korxonani va uning bo'limlarini faoliyatini rejalashtirish, boshqarish, monitoring qilish va baholash uchun lozim bo'lgan axborotlar bilan ta'minlaydi (Baxrushina, 2002). "An'anaviy bilimlar o'rniga fan; qarama-qarshiliklar o'rniga garmoniya; yakka mehnat o'rniga hamkorlik; unumdorlikni cheklash o'rniga maksimal unumdorlik; har bir alohida ishchining eng maksimal unumdorlikka erishishi va eng yuqori darajadagi farovonlik" (Teylor, 1912.). Xarajatlar maxsulot ishlab chiqarish, tovalar sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir (Xasanov va boshq., 2013). Ish jarayonida maksimal samaradorlikka erishish uchun mahsulotning hayot aylanishiga tub o'zgarishlar kiritish kerak (Déming, 1962). Yuqori texnologiyali kompaniyalar, ayniqsa, bugungi kunda keng tarqalgan kuchli raqobat sharoitida, xarajatlarga asoslangan raqobatga tobora ko'proq duchor bo'layotgani uchun loyiha tannarxini nazorat qilishni takomillashtirish zarur (Nixon va va boshqalar (1998). Budjetni rahbariyat tomonidan ma'lum bir davr uchun taklif etilayotgan harakatlar rejasining miqdoriy ifodasi va rejani amalga oshirish uchun nima qilish kerakligini muvofiqlashtirishga yordam sifatida belgilaydi (Horngren et al., 2003). Maqsadli xarajatlarni hisoblash jarayoni jamoaga asoslangan, turli bo'limlarning vakillari qaror qabul qilish uchun yig'iladigan faol muhit. Bu turli bo'limlar o'rtasidagi ma'lumotlar bo'shlig'ining qisqarishiga olib keladi va bo'limlar o'z faoliyatining muhimligini anglab etganda, ularni yanada sezgir qiladi. Ansoriy va Bell, (1996). Boshqaruv hisobi yangi hisob-kitob tizimi emas. Bu asosiy strategik qarorlarni qabul qilishda tashkilotni xabardor qilishda yordam berish uchun xarajatlar va boshqaruv hisobidan foydalanishni o'z ichiga olgan umumiy atama (Carr va Tomkins, 1996).

Tadqiqot metodologiyasi.

Kimyo sanoati korxonalarida faoliyatida yuzaga keladigan xarajatlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida qo'llaniladigan iqtisodiy usullar: induktsiya va deduktsiya, kuzatish, umumlashtirish, taqqoslash, baxolash, omilli tahlil, sintez va boshqalardan tashkil topadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kimyo sanoati bugungi kunda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib xisoblanadi. Ushbu tarmoq tomonidan ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va axoli tomonidan foydalaniladi. Asosiy istemolchilardan biri tarmoqning o'zi bo'lib, uning xajmi kimyo sanoati maxsulotlarining $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etadi. Shuningdek

tarmoq maxsulotlarining yirik iste'molchilari sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, taransport va boshqa tarmoqlardir.

Kimyo sanoati maxsulotlarini bir necha guruxga bo'lish mumkin, masalan birinchi guxni barcha iqtisodiy tarmoqlarda foydalanishga mo'ljallangan barcha kimyoviy moddalar, ikkinchi guruxini inson xayotini va tabiatni saqlashga mo'ljallangan kimyoviy moddalardan ishlab chiqilgan maxsulotlar, uchinchi guruxga kimyo sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan istemol mollarini kiritish mumkin. Bugungi kunda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi kimyo sanoati maxsulotlariga talabni oshishiga olib keldi. Kimyo sanoatining rivojlanishi sanoatning boshqa tarmoqlarining zamon talablari darajasida rivojlanishiga sharoit yaratadi. Ayniqsa, maxalliy kimyo sanoati maxsulotlari tannarxi bo'yicha import maxsulotlardan ustunligi iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlari raqobat ustunligini ta'minlashga, ularning moliyaviy xolatini yaxshilanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kimyo sanoatining vositasida bugungi kunda ishlab chiqarish tarmoqlari uchun arzon va muxim bo'lgan xom-ashyo va materiallar, yarim tayyor maxsulotlar, turli kimyoviy moddalar, reaktivlar, farmatsevtika uchun dori darmon va va o'simliklarni ximoya qilish vositalari, uy xo'jaliklari uchun keng iste'mol tovarlari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek soxa chiqindilarni qayta ishlaydi, ishlab chiqarishni tugatish bilan bog'liq ekologik talablarni bajaradi. Kimyo sanoatini rivojlantirish orqali qazib olish, qayta ishlash va u bilan bog'liq xolda kimyo maxsulotlaridan foydalanuvchi tarmoqlar kompleks rivojlantiriladi.

Kimyo sanoatida samaradorlikni ta'minlashda boshqaruv hisobining zamonaviy usullari qo'llash xarajatlarda samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Kimyo sanoatining ishlab chiqarish jarayonida xom-ashyo ximiyaviy reaksiyalar natijasida o'zinig kimyoviy tarkibini o'zgartirishi mumkin. Bu esa xarajatlarni hisobga olish va ularni boshqarishda o'ziga xos yondashuvlarni qo'llashni taqozo etadi. Shuningdek, kimyo sanoati maxsulotlari xozirgi kunda ishlab chiqirish tarmoqlarining barcha soxalarida keng foydalanmoqda. Ushbu iste'molchi tarmoqlarning talabini qondirish uchun soxaga katta investitsiyalarni jalb qilishni talab qilinadi. Bu esa katta xarajatlarni talab qiladi. Ya'na shuni hisobga olish lozimki tarmoqda maxsulot ishlab chiqarish jarayoni turli xil materiallarni talab qiladi. Bu esa materiallarni ta'minoti bilan bog'liq katta moliyaviy sarflarni talab qiladi. Shuning uchun kimyo sanoatida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarga bo'lgan talabni shakllantirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va maxsulotlarni sotishni yo'lga qo'yish moliyaviy jixatdan ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday qiyinchiliklar quyidagi xolatlar natijasi bo'lishi mumkin:

- talabni yetarlicha xajmda shakllantirish va barqarorligini ta'minlash muammolari;
- qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish;
- kimyoviy resurslarni maxalliylashtirish;
- malakali mutaxasislar tayyorlash;
- ekologik xafsizlikni ta'minlash.

Shuning uchun kimyo sanoati rivojlanishi bir qator muammolar yuzaga kelishi bilan yuz beradi va ularni tizimli xal qilishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida turdosh xamda yondosh tarmoqlarni rivojlantirish, maxsulot sotish bozorlari va talabni shakllantirish, maxsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish xajmlarini rejalarini ta'minlashni kabi masalalarni xal qilishni taqozo etadi. Shuningdek, talablar doirasida maxsulotlarni yangilab borish, bunda xalqaro standartlar talablarini saqlash, xamda bozorlar chegarasini kengaytirishni soxani rivojlantirishda muxim axamiyat kasb etadi.

Kimyo sanoati korxonalarida xarajatlar hisobi va ularni optimallashtirish xarajatlarni yuz berishida o'ziga xosliklarni hisobga olgan xolda tashkil etiladi.

Kimyo sanoati kapital talab tarmoq bo'lib, u yangi va takomillashgan texnologiyalar, maxsus asbob-uskunalar, texnologik liniyalar va infratuzilmaga katta investitsiyalarni talab qiladi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida amartizatsiya xarajatlarini salmog'ini balandligi asosida yuzaga keladigan yuqori xarajatlarga olib keladi. Shuning uchun xarajatlarni hisobga olishda va ularni tashkil etishda o'ziga xos usullarni qo'llashni taqozo etadi.

Xarajatlar hisobini bu tarzda tashkil etish meyorlashtirilgan foydani ta'minlash uchun muximdir.

Kimyo sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarining o'ziga xosligi tannarxni shakllanishiga ta'sir qiladi. Maxsulot ishlab chiqarish jarayonlari ko'p bosqichli texnologik jarayonlardan tashkil topadi. Ishlab chiqarishning xar bir bosqichi maxsus kimyoviy moddalardan foydalanishni, xarajatlarni tashkil etishni talab qiladi. Boshqa tarmoqlardan farqli o'laroq, kimyo tarmog'ida turli kimyoviy chiqindilar xosil bo'ladi va bu esa o'z navbatida ushbu chiqindilarni qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlarni yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatda, boshqaruv hisobi maxsulot tannarxiga sarflanadigan materiallar, energiya xarajatlari, suvdan foydalanish kabi holatlarni, shuningdek, ishlab chiqarish yo'qotishlari yoki materiallarni qo'shimcha qayta ishlash kabi jarayon bilan bog'liq omillarning ta'sirini hisobga olishi kerak.

Kimyo sanoati ishlab chiqarishda foydalanadigan maxsus kimyoviy moddalar narxlarining o'zgarishlariga xamda ularning ta'minotiga juda xam bog'liq tarmoqdir. Bunday bog'liqlik tarmoqni kimyoviy xom-ashyolar baxolari o'zgarishlariga yuqori sezuvchanligiga olib keladi. Bu esa baxolardagi o'zgarishlarni hisobga olgan xolda ishlab chiqarilayotgan maxsulot tannarxini aniqlashni talab qilinadi Bundan kelib chiqadiki, boshqaruv hisobi yuqorida keltirilgan barcha o'ziga xosliklarni, o'zgarishlarni hisobga olishni ta'minlaydigan usullardan foydalanishi lozim.


Odatda kimyo sanoatida uning xususiyatlari bilan bog'liq xolda ekologik talablarni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar amalga oshiriladi. Bunday xarajatlar umumiy xarajatlar tarkibida sezilarli salmoqqa ega bo'lishi mumin. Bunday qo'shimcha xarajatlaning salmoqlari tuzilayotgan istiqboldagi rejalarga xamda modernizatsiyalash jarayonlariga xam ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi kimyo sanoati maxsulotlarining katta iste'molchisi bo'lib hisoblanadi. Bu xolda mavsumiylik omilini hisobga olgan xolda rejalarni tuzish talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida tarmoqda rejalarni o'zgarishlar bilan bog'liq xolda yuzaga keladigan tsenariylar bo'yicha modelashtirishni talab qiladi. Bu xam tarmoqning o'ziga xos xususiyati bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda tarmoqning rivojlanishi va uning moliyaviy barqarorligi xarajatlarni optimallashtirish va ularni samarali tashkil etish jarayonlariga bog'liq. Chunki xarajatlarni optimal nisbatlarining ta'minlanishi maxsulot tannarxining pastligi orqali erishiladigan foydani oshishiga olib keladi.

Ishlab chiqarishda yangi texnologiyalardan foydalanish xom-ashyodan samarali foydalanishni ta'minlash orqali xarajatlarni samarali tashkil etishga sharoit yaratadi. Ammo modernizatsiya jarayonlari katta moliyaviy sarmoyalarni talab qiladi. Tarmoqda ishlab chiqarishda barqaror ta'minotni va ekologik me'yorlarni ta'minlash xarajatlari xam sezilarli darajada bo'lib, ushbu xarajatlar boshqaruv hisobining muxim ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Kimyo sanoatida har bir ishlab chiqarish jarayoni o'ziga xos kimyoviy jarayonlardan tashkil topadi. Bunday jarayonlarda turli kimyoviy moddalar xamda xom-ashyolardan foydalanilishi mumkin. Soxa korxonalarining bunday xususiyatlari ushbu sub'ektlarda xarajatlarni aniqroq hisobga olish va tashkil etishni ta'minlaydigan usullardan foydalanishni taqozo etadi. Shuning uchun kimyo sanoati korxonalarida xarajatlarni faoliyatlar bo'yicha hisobga olish va tashkil etishni xamda taqsimlashni ta'minlovchi ABC- (faoliyatga asoslangan tannarx) usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarish sarflarini hisoblashning ananaviy usullaridan foydalanish sarflar meyorlaridan og'ishlarni aniqlashga xamda uni bartaraf etishga sharoit yaratadi. Bozor o'zgarishlari tezlashgan xozirgi davrda bu ayniqsa muximdir.

Boshqaruv hisobining ABC usuli quyi bo'g'inlarda ishlab chiqarish xarajatlarini samarali tashkil etishga qaratilgan tizim bo'lib, u bir qancha usullarni qo'llashni taqozo etadi. Faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq jarayonlar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va ularni ta'minlash shular jumlasidandir. AVS usuli qo'llanilganda taxsulot tannarxi quyidagi usul orqali hisoblash mumkin. (1-rasm).



1-rasm. ABC tizimida tannarxni hisoblash usuli

ABC usulida ishlab chiqarish sarflari va xarajatlari ishlab chiqarishning jarayonlari bo'yicha (ta'minot, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishlar, moliyaviy faoliyatlar va boshqalar) hisobga olinadi va xarajat guruxlariga jamlanadi va shundan so'ng maxsulot tannarxi aniqlanadi. Sotish bilan bog'liq faoliyatlarga sotish va sotishdan keyingi xizmatlar bilan bog'liq jarayonlar kiradi.

Ko'rinib turibdiki, ABC-usuli quyi faoliyatlar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va tashkil etish tizimidir. Kimyo sanoati korxonalari faoliyatlari xom ashyo va materiallar, mehnat va tashkiliy xarajalar orqali ta'minlanadi.

Soxa sub'ektlarida iqtisodiy jarayonlarni tasavvur qilish uchun yuz berayotgan barcha jarayonlarni (ta'minot, ishlab chiqarish, sotish, xizmatlar va boshqala faoliyatlarni) vazifalari doirasida birlashtirish amalga oshiriladi.

Bunday turli ishlab chiqarishning bo'g'inlari va faoliyatlaridan tashkil topgan shakllarida yuzaga kelayotgan xarajatlarni hisobga olish va ularni tashkil etishni samaradorligi AVS usuli qo'llanilganda yaxshiroq aniqlanishi mumkin.

Tarmoq sub'ektlarida ABC usulini tadbqiq etish quyidagi xarajatlarni tashkil etish va boshqarish uchun muximdir:

1. Kimyo sanoati ishlab chiqarish sub'ektlarida maxsulot ishlab chiqarish jarayoni ma'lum kimyoviy jarayonlardan tashkil topib, ular odatda ma'lum kimyoviy reaksiyalar bilan bog'liq bo'lganligi bois xar bir jarayon o'ziga xos xolda resurslarni va xizmatlarni talab qiladi;

2. Kimyoviy jarayonlar tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib, maxsulotlarni turlarini rivojlangan iqtisodiyot talablariga mos xolda yangilab borishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida yangi maxsulotlarni o'zlashtirish bilan bog'liq ilmiy-taqqot xarajatlarini yuzaga keltiradi.

3. Kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy jarayonlarning xar bir bosqichi uchun turli kimyoviy moddalar talab qilinishi mumkin.

4. Kimyo sanoatida moddiy xom-ashyolarning xaridi, ularni tayyorlash, ishlab chiqarishga yetkazib berish kabi xarajatlarning salmog'ining kattaligi.

5. Kimyo ishlab chiqarish korxonalarida tayyor maxsulotlarni sotish bilan bog'liq xarajatlarning turli maxsulotlar uchun turlicha bo'lishi.

6. Umumiy xarajatlarning salmoqliligi va ularning salmog'ini ortib borayotganligi.

Kimyo sanoati korxonalarida AVS usuli umumiy xarajatlarni taqsimlashda aniqlikka ega. Ushbu usul umumiy xarajatlarni maxsulotning xar bir turiga olib borishga sharoit yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib kimyo tarmog'i korxonalarida ushbu usul bo'yicha umumiy xarajatlarni quyidagi guruxlarda ifodalash mumkin. (1-Jadval).

Ushbu guruxlangan xarajatlar turli xajmdagi korxonalarda turlicha miqdorlarda bo'lishi mumkin. Shuning uchun ularni turli faoliyatlar va jarayonlar bo'yicha birlashtirish, yiriklashtirish yoki aniqlashtirish kabi usullar yordamida aniqlash mumkin.

Kimyo sanoati korxonalarida xarajatlarni faoliyatlar bo'yicha tashkil etishda ma'lum bir o'ziga xos xolatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- umumiy xarajatlarni maxsulotlarning ma'lum turlari bo'yicha hisobga olish;
- xarajatlarni xarajat markazlari bo'yicha hisobga olish.

1-jadval

Tarmoq korxonalari umumiy xarajatlar va ularni taqsimlash

Iqtisodiy faoliyat turlari	Xarajatlarni turlari
Resurslar bilan ta'minlash jarayoni	1. Resurslarni qiymati 2. Yo'l xarajatlari qiymati 3. Tayyorlash xizmatlari qiymati
Ishlab chiqarish jarayoni	1. Moddiy xarajatlar qiymati; 2. Mexnat xarajatlari qiymati; 3. Umumiy xarajatlar
Sotish bo'limi	1. Sotish xajmi qiymati; 2. Sotuvchilarning asosiy ish xaqi xarajatlari. 3. Sotuv maydonlari ijara xaqi.
Boshqaruv bo'limi	1. Mamuriy xarajatlar

Kimyo sanoati korxonalarida faoliyat turlari bo'yicha umumiy xarajatlarni tashkil etishda umumiy xarajatlarni iqtisodiy jarayonlar turlari bo'yicha tashkil etish mumkin:

- ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha;
- sotish jarayonlari bo'yicha;
- tashkiliy jarayonlar bo'yicha.

Bu o'z navbatida umumiy xarajatlarni jarayonlar bo'yicha taqsimlashga sharoit yaratadi. Shu asosda faoliyat turlari bo'yicha umumiy xarajatlarni guruxlarini shakllantirish xususiyatlarini aniqlash mumkin: (2-Jadval)

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, tarmoq korxonalari faoliyatida xarajatlarni tashkil etish samaradorligini ta'minlash uchun AVS usulini tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib takomillashgan xolda tadbiq etish lozim.

Ushbu jarayonda takomillashtirish jarayonlarini quyidagilar bo'yicha amalga oshirish mumkin:

- tarmoq korxonalarida umumlashgan taqsimlanuvchi xarajatlarni faoliyatlar bo'yicha ajratish;
- ishlab chiqarish faoliyatlarining xar biri turi bo'yicha bitta jarayonni belgilash;
- iqtisodiy faoliyatlar turlari bo'yicha o'xshash jarayonlarni guruxlash;
- umumiy xarajatlar bilan iqtisodiy jarayon bog'liqligini aks ettiruvchi bog'lovchi kattalik;
- aloxida olingan umumiy xarajatlarni belgilovchi omillar mavjud bo'lib, ushbu omillarning o'lchov birligini aniqlash.

Aloxiida olingan umumiy xarajatlarning tanlangan xarajat ob'ekti umumiy xarajatlarga bo'lish orqali uning salmog'ini aniqlash mumkin.

AVS usulini bunday takomillashtirish tarmoqda uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda jarayonlarda xarajatlarni to'g'ri aniqlash va ular to'g'risida sifatli ma'lumotlarni tayyorlashga sharoit yaratadi.

Shuni qayd etish kerakki, ushbu usul qo'llanilganda va xarajatlar tashkil etilganda tarmoqda asosiy e'tibor moddiy resurslardan samarali foydalanishga, maxsulot sifatini ta'minlashga xamda ekologik xafsizlik talablarini saqlashga qaratilishi lozim.

2-jadval

Iqtisodiy jarayonlar bo'yicha umumiy xarajatlarini xususiyatlari

Umumiy xarajatlar	Iqtisodiy jarayonlarda xarajatlarning xususiyatlari		
	Ishlab chiqarilgan maxsulot bog'liq xolda	Maxsulot sotish faoliyati	Barcha xizmatlar
Ishlab chiqarish faoliyatlari	Maxsulotlarni standartlash	Bozorni tadqiq etish	Boshqaruv jarayoni
	Maxsulot sifatini ta'minlash	Savdo kelishuvlari	Asosiy vositalar saqlash, amortizatsiya
	Assortiment	Tashkiliy masalalar	Xizmatlar bilan kelishuvlar
	Rejalashtirish va me'yorlar		
	Ekologik shartlar		

Iqtisodiy faoliyatlar va ularda jarayonlarni tashkil etish to'g'risidagi axborotlarni jamlash va shaklga solish tarmoq sub'ektlari iqtisodiy faoliyatlari va ularning moliyaviy natijalari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lish xamda qaror qabul qilish jarayoniga yordam beradi.

Xarajatlarni bunday taqsimlashning asosiy maqsadi, maxsulot sotishdan olinadigan moliyaviy natijani aniqlash va shu orqali sub'ektning iqtisodiy faoliyati natijalarini hisoblash va uning miqdorlarini baxolashdir. Shu orqali xar bir iqtisodiy faoliyatning moliyaviy natijalarini sub'ekt moliyaviy natijalariga bog'lash imkonini xosil bo'ladi.

Ushbu usul qo'llanilganda faoliyatlarni aniqlash va ularni belgilab olish lozim. Ushbu amaliyot xarajatlarni hisobini maqsadli bo'lishini ta'minlaydi.

Odatda kimyo sanoati korxonalarida ma'lum ko'rsatkichlar xarajatlarni ob'ektlarga taqsimlashda foydalaniladi, ular quydagilar bo'lishi mumkin:

- texnik vositalarning ish vaqti, mashina soatlar;
- maxsulotlar, jarayonlar, bosqichlar soni;
- sifat testlari, laboratoriyalari soni;
- qayta ishlangan chiqindilar, qaytarilgan materiallar soni;
- maxsulot yetkazishda buyurtmalar soni;
- uskunalarni ishchi xolatini ta'minlashda uskunalar soni , uskunalar ish vaqti, mashina soat, ta'mirlar soni, xizmatlar soni;
- xafsizlikni ta'minlashda, o'tkazilgan tadbirlar, tekshirishlar, kimyoviy jarayonlar, xujjatlar soni.

Xarajatlarni taqsimlash amaliyotida qo'llaniladigan taqsimlash vositasi faoliyatlarining mutaxasislari yordamida aniqlanadi va shu ko'rsatkich taqsimlash jarayonida foydalaniladi. Shundan keyin korxonaning faoliyatlari bo'yicha xarajatlari umumlashtiriladi va ma'lum axborot shakliga keltiriladi. Bunday xarajatlar kimyo sanoati korxonalarining barcha faoliyatlariga tegishli moddiy, mexnat va boshqa tashkiliy xarajatlaridan tashkil topadi. Birlamchi xarajatlar ishlab chiqarish va sotish jarayonlariga olib boriladi. Hisoblangan bunday ko'rsatkichlar jarayonlarda xarajatlarni tafsiflaydi.

Xulosa va takliflar.

Kimyo sanoati korxonalarida xarajatlar ushbu soxa xususiyatlaridan kelib chiqib yuzaga keladi. Xarajatlarni samarali tashkil etish, ularni tashkil etishda zamonaviy usullardan foydalanishni taqozo etadi. Boshqaruv hisobi xarajatlarni tashkil etish va uni boshqarishga sharoit yaratadi. Bugungi global iqtisodiyot sharoitida xarajatlar O'zbekiston kimyo sanoati korxonalarining raqobatda ustunligini ta'minlashning vositasi bo'lib hisoblanadi. Boshqaruv hisobida xarajatlarni tashkil etish va bshqarishda qo'llaniladigan bir qator usullar mavjud

bo'lib, AVS usuli shunday usullardan biri bo'lib hisoblanadi. AVS faoliyatlar bo'yicha xarajatlarni tashkil etish va boshqarishga asoslangan usul bo'lganligi bois, ushbu usulni kimyo sanoati korxonalaridalda qo'llash xarajatlarni tarmoq xususiyatidan kelib chiqib tashkil etishga sharoit yaratadi.

Kimyo sanoati korxonalarida xarajatlarni miqdorlariga ma'lum bir omillar ta'sir ko'rsatadi va ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarish jarayonida kimyoviy reaksiyalar natijasida moddalar kimyoviy tarkibining o'zgarishlari sodir bo'ladi.

- kimyo sanoatida korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish va maxsulotlarni sotishni yo'lga qo'yish iqtisodiy jixatdan xamisha xam o'zini oqlamasligi mumkin.

- ishlab chiqarish jarayonlari ko'p bosqichli texnologik jarayonlardan tashkil topadi va xar bir bosqich maxsus kimyoviy moddalardan foydalanishni, xarajatlarni talab qiladi.

- kimyoviy chiqindilar va ularni qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlar yuzaga keladi.

- maxsus kimyoviy moddalarga bog'liqlik mavjud.

- maxsus kimyoviy moddalar narxlarining o'zgarishlariga sezuvchanlik mavjud.

Ushbu omillarni hisobga olgan xolda tarmoqda xarajatlarni tashkil etishda uning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- xarajatlarni AVS usuli orqali tashkil etishni ta'minlash;

- xarajatlar ob'ektlarini to'g'ri belgilash;

- umumiy xarajatlarning to'g'ri aniqlashni ta'minlash;

- xarajatlarni taqsimlash bazalarini to'g'ri aniqlash;

- xarajatlarni nazoratini ta'minlash faoliyatlarini tashkil etish.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Ahmed, A., Abdulrahman, S. A., & Abd Ghani, M. B. (2019). *Management accounting practices in many countries around the world: A review of the literature. IOSR Journal of Business and Management (IOSR-JBM)*, 21(2), 5.

Akao, Y. (2004). *Hoshin Kanri: Policy Deployment for Successful TQM*. Productivity Press.

Almquist, R., et al. (2013). *Public sector governance and accountability. Critical Perspectives on Accounting*, 24(7–8), 479–487. <https://doi.org/10.1016/j.cpa.2012.11.005>

Ergasheva Sh.T., Abdusalomova N.B. (2019) *Boshqaruv hisobi. Darslik*. – T.: TDIU. – 180 b.

Xasanov B. (2013) *Boshqaruv hisobi: Darslik*/ Xasanov B., Xashimov A., Toshkent: Cho'lpon nomidani NMIU- 312 b.

Тейлор Ф.У. (1912) *Научные основы организации промышленных предприятий*. - СПб.

Эмерсон Г. (1972) *Двенадцать принципов производительности труда*. - М.: Экономика.